

TURLI GENOTIPDAGI ITLARNI OLIY NERV FAOLIYATI TIPLARI BO‘YICHA TANLASH

Agzamxon Normuxamedov

Toshkent davlat agrar universiteti “Umumiy zootexniya va zootexnologiya” kafedrası assistenti
ORCID ID: 0009-0008-0929-243X

Botir Ulmasov,

Toshkent davlat agrar universiteti “Veterinariya meditsinasi” kafedrası dotsenti
ORCID ID : 0009-0004-6834-6662

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi kinologiya, seleksiya va fiziologiya sohasidagi bilimlarni tahlil qilish va amalda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Itlarni shartli reflektor faoliyati bo‘yicha genotip asosida tanlash yo‘llari, oliy nerv faoliyatining (ONF) tiplari, ularning tavsifi va xususiyatlari, tanlash usullari, shartli qo‘zg‘atuvchilardan foydalanish, motivatsion omillar to‘g‘risida fikr yuritiladi. ONF ning kuchli va kuchsiz turlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ONFning gibrid turlarining mavjudligi, ONFning qaysi turlarini tanlash afzalligi tavsiflangan. Kuzatishlar asosida seleksiya va o‘rgatish samaradorligini oshirishda ONF turlarining ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kinologiya, itlar, genotip, nerv faoliyati, refleks, xulq-atvor.

Аннотация. В данном тезисе представлены рекомендации по анализу и практическому применению знаний в области кинологии, селекции и физиологии собак. Рассматриваются о способы отбора собак по условно-рефлекторной деятельности на основе генотипа, типы высшей нервной деятельности, их описание и особенности, способы отбора, использование условных раздражителей, мотивационные факторы. Описаны сильные и слабые типы ВНД, их особенности, а также наличие гибридных видов ВНД и на какие виды ВНД следует отдавать предпочтение отборе. На основе наблюдений анализируется значимость типов ВНД для повышения эффективности селекции и дрессировки.

Ключевые слова: кинология, собаки, генотип, нервная деятельность, рефлекс, поведение.

Abstract. This thesis presents recommendations for the analysis and practical application of knowledge in the field of cynology, breeding, and dog physiology. Methods for selecting dogs based on conditioned reflex activity based on genotype, types of higher nervous activity (HNA), their description and characteristics, selection methods, the use of conditioned stimuli, and motivational factors are discussed. Strong and weak HNA types, their characteristics, as well as the presence of hybrid HNA types and which HNA types should be preferred for selection are described. Based on observations, the significance of HNA types for improving the effectiveness of selection and training is analyzed.

Keywords: kinology, dogs, genotype, nervous activity, reflex, behavior.

Kirish. Prezidentimiz tomonidan davlatimiz xavfsizlik va barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan umumiy siyosatida, kinologiya va xizmat itlarini o‘rni va ishtiroki salmoqlidir.

Kinologiya markazlari tarkibida xizmat itlarni tayyorlash va ularning samarali qo‘llanilishi va o‘tqaziladigan seleksiya ishlarini ta‘minlashda chuqur bilimlar kerakligi zarur. Shu qatorda o‘qituvchi-kinologlar tomonidan itlarni xulq-atvori shakllanishi va turli genotiplar tug‘risidagi tushunchalar yordamida ularni boshkarish va ish qobiliyatini yuqori darajaga olib borish muxim omil xisoblanadi.

Materiallar va usullar. Quyidagi tezisni tayyorlashda hozirgi kundagi ilmiy manbalarni taxlillash va ular asosida xulosalar chiqarishlardan foydalanildi. Jumladan tadqiqotlarda turli genotipdagi xizmat itlarning tayyorlash jarayoni, seleksiyasi, ularni xulq-atvorlari tahlil etildi.

Natijalar va munozaralar: Itni o‘rgatish yoki urchitish maqsadida tanlashdan oldin, kinolog va seleksioner itni oliy nerv faoliyatining qaysi tipiga mansubligini, shuningdek, itni qaysi genotip asosida tanlab olishi juda muhimdir.

It genotipi va oliy nerv faoliyati turi o‘rtasidagi bog‘liqlik shundan iboratki, genetika oliy nerv faoliyatining ba‘zi xususiyatlariga, masalan, asab jarayonlarining kuchi, muvozanati va harakatchanligiga moyillikni belgilaydi. Bu

genetik xususiyatlar itning xulq-atvori, o‘rganuvchanligi va turli sharoitlarga moslashuvchanligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, nemis ovcharkasi qo‘prok muvozanatli oliy nerv faoliyatiga ega, belgiya ovcharkasining nerv sistemasi esa nisbatan tez qo‘zgaladi.

Itlarni genotip asosida oliy nerv faoliyati (ONF) bo‘yicha tanlash, biolog olim professor L.V.Krushinskiy (1911-1984) taklif qilgan va bu itlarning ish qobiliyatlari sifatlarini yaxshilash uchun kerakli xususiyatlarga ega bo‘lgan individlarni maqsadli tanlash va ko‘paytirish imkonini beradi deb hisoblagan.

Ish uchun itlarni tanlashda qo‘zg‘alish jarayonlarining kuchini baholash muhimdir, chunki kuchsiz tipdagi ONF itlar xizmat faoliyati uchun yaroqsiz, ular tez charchaydi, kuchli qo‘zg‘atuvchilar ularning faoliyatini tormozlaydi, ularda osongina psixologik buzilishlar va asab kassaliqlari paydo bo‘ladi. Ko‘pchilik itlar uchun asab jarayonlarining kuchini aniqlash bilan chegaralanish mumkin, lekin itlarni yetishtiruvchilarda ularning muvozanati va harakatchanligini taxminan aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Xulq-atvorning ustunlik qiluvchi reaksiyalarini aniqlagandan so‘ng, ONF turini taxminan aniqlash mumkin, buni itlar guruhida amalga oshirish qulay. Itlar, egasi tomonidan berilgan oddiy buyrug‘ini bajara olishlari kerak.

Oliy nerv faoliyati (ONF) turlarining tavsifi

ONF turi	ONF jarayonning quchi	Nerv sistemasini muvozanati	Harakatchanlik	Ishga yaroqligi
Xolerik	Kuchli	Qo'zg'alish > tormozlanish	Juda harakatchan, tinimsiz	Yaroqli, lekin cheklovlar bilan
Sangvinik	Kuchli	Qo'zg'alish > yoki = tormozlanish (muvozanatli)	Harakatchan	Yaroqli
Flegmatik	Kuchli	Qo'zg'alish < yoki = tormozlanish (muvozanatli)	Inert	Yaroqli
Melanxolik	Kuchsiz	Qo'zg'alish < tormozlanish (muvozanatsiz)	Kam harakatchan	Yaroqsiz

1-usul. Itlarni bir-biridan 3-4 metr masofaga bog'lab qo'yiladi. It egalari ketishadi. Himoya kostyumi kiygan yordamchi itlarga hujum qiladi, ularni asabiylashtiradi, aktiv- himoya reaksiyasini keltirib chiqaradi va tezda qochib ketadi. It egalari kelib, itlarni yechadilar, silaydilar, "yot" yoki "o'tir" buyrug'ini beradilar va tezda 3 daqiqaga uzoqlashadilar.

Himoya kiyimidagi yordamchiga bo'lgan reaksiya bo'yicha qo'zg'alish jarayonlarining kuchi, chidamlilik (bu berilgan holatni saqlash ko'nikmasi) bo'yicha - tormozlanish jarayonlarining kuchi (3 daqiqadan ortiq chidamlilik kuchli tormozlanish jarayonlari bo'lgan itlarni tavsiflaydi), aktiv-himoya reaksiyasining so'nishi va faoliyatning boshqa turiga o'tishi bo'yicha – nerv sistema jarayonlarining harakatchanligi baholanadi.

Shuni kursatib o'tish kerakki, itlar psixologiyasida ikki-uchta asosiy ONF (gibrid) turlari mavjud bo'lib, ularning har turi taxminan 20-25% ni tashkil qilishi mumkin. Aynan ular ko'p hollarda itning xatti-harakatlarini belgilaydi. Shunda, eng kuchli ONF turi asosiy deb belgilanadi va hujjatlarda qo'rsatilishi lozim.

2-usul. Ozuka kuzgatuvchisi yani ovqat solingan idishdan foydalanib, harakat tabiiy shartli reflekslariga qarab nerv sistemasining tipiga baho xam berish mumkin.

Itlni dinamometrga (kuch yoki kuch momentini o'lchash uchun asbob) bog'lab qo'yiladi. It och bo'lishi kerak. Itning oldiga 2 m masofada ovqat solingan idish qo'yilib, asta-sekin yaqinlashtiriladi. Qo'zg'alish kuchi, ozuqa qo'zg'atuvchisi ta'siri kuchayganda harakat reaksiyasining kuchayishi bilan, tormozlanish kuchi itning oldida turgan ovqatli idishga harakat reaksiyasining tezligi va to'liq so'nishi bilan, jarayonlarning harakatchanligi idishni surganda, so'ng reaksiyaning tiklanishi bilan baholanadi. Butun tadqiqot bir

necha daqiqa davom etadi. Ushbu moslamani oldindan ma'lum oliy nerv faoliyati turdagi va genotipdagi "nazorat" guruhdagi itlarni sinovdan o'tkazishda darajalash kerak.

Ozuka va himoya reflekslarining turli tizimlarida nerv jarayonlari kechishining birmuncha turli xususiyatlari namoyon bo'lishi mumkin, bu esa itning dominant motivatsiyasiga bog'liq.

Itlarni mashq qildirish jarayonida ularning nerv sistemasining tipologik xususiyatlarini aniqlash mumkin. Qo'zg'alish kuchi itning jazolar bilan tormozlanmaydigan ish qobiliyatiga, tormozlanish kuchi obyektini izlashda ishlashning tezligi va aniqligiga, nerv jarayonlarining harakatchanligi - xo'jayinlar, muhit va boshqalar o'zgarganda almashtirishning osonligi va keraksiz aloqalarning so'nish tezligiga qarab aniqlanadi.

Yosh itlarda nerv jarayonlarining kuchi katta itlarnikiga qaraganda ancha past bo'lishini hisobga olish kerak. Hamda, har qanday omillarni hisobga olmaslik, masalan: itning kasalligi, sayr qilmasligi va boshqalar, itning sinov natijalarini yashirishi va hatto noto'g'ri ko'rsatishi mumkin.

Itlarni ish sifatleri bo'yicha baholash kompleks ravishda amalga oshirilishi kerak, xizmat uchun tanlangan itlarning ish sifatleri ularni o'rgatish jarayonida aniqlanadi. Ish uchun kuchli ONF tipdagi itlar saralanadi, kuprok "sangvinik" va "flegmatik" tipdagi itlar tanlab olinadi.

Kerakli ONF turini aniq belgilash, shuningdek, itning genotipi bilan bog'lash kinologlar va seleksionerlarga ishlash uchun aniq ish qobiliyatlariga ega va kelgusida ko'paytirish uchun kerakli seleksiya ma'lumotlariga ega bo'lgan itni tanlash imkonini beradi. Shuningdek, bu kinologlarga kinologiya va veterinariya tibbiyoti bo'yicha bilim darajasini oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. «Кинология»: Учебник. — 3-е изд., стер. — СПб.: Издательство «Лань», 2017. — 376 с.: ил. — (Учебники для вузов. Специальная литература), Санкт -Петербург \Москва\Краснодар - 2017 г \ ISBN 978-5-8114-1444-4
2. Е.В.Четвертакова – Ветеринарная генетика\Красноярский аграрный университет. Красноярск-2016 г -99 стр.\ ББК 48,31
3. Хохрин С.Н., Рожков К.А., Лунегова И.В. \ X86 Кормление собак: Учебные пособие. — СПб.: 2015. — (Учебники для вузов. Специальная литература). ISBN 9785811418749
4. Теребова С.В., Лапшин Л.В.- Основы этологии животных 2016. – 285 с.\ «Приморская государственная сельскохозяйственная академия» Институт животноводства и ветеринарной медицины УДК 591.5. - ББК 28.673